

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|---|--------|
| <i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)..... | 10-15 |
| <i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ | 16-21 |
| <i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ | 22-27 |
| <i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ | 28-38 |
| <i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР | 39-46 |
| <i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН | 47-51 |
| <i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR | 52-57 |
| <i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI | 58-64 |
| <i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI | 65-70 |
| <i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI | 71-75 |
| <i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ | 76-80 |
| <i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA | 81-85 |
| <i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI | 68-93 |
| 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ | |
| <i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW | 94-100 |

| | |
|--|---------|
| <i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI..... | 101-109 |
| <i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIШ B'YIЧA ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ..... | 110-119 |
| <i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI..... | 120-132 |
| <i>Махмудов Турсунпулат Давронович</i> ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ | 133-144 |
| <i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI..... | 145-150 |
| <i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ХАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАХЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ..... | 151-158 |
| <i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 159-164 |
| 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| <i>Саидова Камола Усканбаевна</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ | 165-173 |
| <i>Отонтурdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI | 174-179 |
| <i>Очилова Гузаль Араловна</i> ЮКСАК МАЪНАВИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ..... | 180-185 |
| <i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI..... | 186-192 |
| <i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK..... | 193-198 |
| <i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI..... | 199-202 |
| <i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR | 203-212 |
| <i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI | 213-218 |
| <i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI | 219-224 |

| | |
|--|---------|
| <i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI | 225-230 |
| <i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI | 231-236 |
| <i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR | 237-243 |
| <i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ..... | 244-251 |
| 10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| <i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI..... | 252-257 |
| <i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE | 258-265 |
| <i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) | 266-271 |
| <i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI..... | 272-281 |
| <i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ | 282-287 |
| <i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI | 288-295 |
| <i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI | 296-305 |
| <i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES | 306-311 |
| <i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA | 312-317 |
| <i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР..... | 318-324 |
| <i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ | 325-330 |
| <i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI | 331-335 |

| | |
|---|---------|
| <i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI | 336-340 |
| <i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР | 341-347 |
| <i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI | 348-352 |
| <i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY | 353-358 |
| 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ | 359-365 |
| <i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI | 366-378 |
| 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 379-384 |
| <i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI | 385-390 |
| <i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ | 391-396 |
| <i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ | 397-406 |
| <i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION | 407-412 |
| <i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона кўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида)..... | 413-421 |
| <i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH | 422-426 |
| <i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК | 427-435 |
| <i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ | 436-442 |

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA443-448

09.00.00–Фалсафа фанлари

Bozorova Ro'zigul Sharofovna
TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni
boshqarish instituti "Ijtimoiy-gumanitar
fanlar va jismoniy madaniyat" kafedراسи dotsenti

MEHRISIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUARUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada oila, shaxslararo va qarindoshlik munosabatlarida mehr, mehrsizlikni oldini olish masalalari kontent tahlil misolida ko'rib chiqilgan. Bolalar, yoshlar va keksalardagi mehrga muhtojlik, ayollar va bolalar orasidagi jinoyatchilikning ko'payishi, oilaviy ajrimlar sonining oshib borishi, individuallikka moyillik, bir-birini qo'llab-quvvatlash muhitining ayrim hollarda susayishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, mehr, mehrsizlik, individuallik, shaxs, o'zlikni anglash.

Bozorova Ruzigul Sharofovna
Associate Professor of the TIAME NTU Bukhara
Institute of Natural Resources Management,
Department of "Social and Humanities and Physical Culture"

FACTORS CAUSING THE INCIDENT OF CRUELNESS

Abstract. In the article, the issues of prevention of kindness and unkindness in family, interpersonal and kinship relations are considered as an example of content analysis. The need for care among children, young people and the elderly, the increase in crime among women and children, the increase in the number of family separations, the tendency to individualism, and the weakening of the atmosphere of mutual support in some cases were analyzed.

Key words: family, care, carelessness, individuality, personality, self-realization.

Бозорова Розигуль Шарофовна
Доцент кафедры «Социально-гуманитарные
науки и физическая культура» Бухарского
института управления природными
ресурсами при НИУ «ТИИИМСХ»

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ СЛУЧАИ ЖЕСТОКОСТИ

Аннотация. В статье на примере контент-анализа рассматриваются вопросы профилактики доброты и жестокости в семейных, межличностных и родственных отношениях. Проанализированы потребность в любви у детей, молодежи и пожилых людей, рост преступности среди женщин и детей, увеличение количества семейных разводов, склонность к индивидуализму, а в ряде случаев ослабление атмосферы взаимной поддержки.

Ключевые слова: семья, забота, беспечность, индивидуальность, личность, самосознание.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N28>

Kirish

Oila va qarindoshlik munosabatlarda ma'naviy qadriyatlar mujassamdir. Kattaga hurmat, o'zaro ko'maklashish, kelajak avlod uchun qayg'urish mehr omilining asosiy qoidalari bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kelajak avlodni tarbiyalashga oid vazifalarni belgilar ekan, "Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1], - degan ezgu fikrni bayon qiladi.

Darhaqiqat, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, ularga ilg'or jahon andozalariga mos ta'lim va tarbiya berish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish eng avvalo jamiyatdagi ijtimoiy ma'naviy muhitning sog'lomligi bilan bevosita bog'liq. Bolani mehr bilan tarbiyalamasa unda mehrga muhtojlik, yolg'izlik, tortinchoqlik, tajovuzkorlik, kelishmovchilik, ko'nglisiniqlik, oilaviy janjallar, befarqlik, toshbag'irlik, asabiylik, shafqatsizlik kabi salbiy oqibatlar namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jahon ilm-fani va ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimida mehr tushunchasi va rahm-shafqat muammolari G'arb mutafakkirlaridan M. Sheler, A. Adler, A. Kamyu, E. Fromm, I. Gyotening ilmiy asarlarida, shuningdek, mehr fenomeni masalalari L. Karolin, I. Kurdiye, K. Legge, K. Layouslarning dissertasion tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ilmiy hamjamiyatida oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning nazariy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bu o'rinda avvalo, E. Logunova, M. Krasnova, L. Shvachkina, R. Drujinin kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishni qayd etish lozim. Mamlakatimiz olimlari Q. Nazarov, A. Huseynova, G. Navro'zova, I. Saifnazarov, X. Shayxova, R. Ro'ziyeva, H. Salomovalarning tadqiqotlarida oilada mehr tuyg'usi va uni shakllantirish masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan. B. Karimov shaxslararo mehrlilik darajasini tizimli sosiologik assessmentlash, N. Sultonova do'stlik, mehr-muhabbatning falsafiy, sosial-antropologik xususiyatlari, mehrni oilada singdirish masalalarini o'rgangan. Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarda oilada mehr tuyg'usi va uni shakllantirish masalalari qisman o'rganilganligi bois oilada mehrni singdirishning ijtimoiy-falsafiy va aksiologik, ontologik, gnoseologik jihatlarni tadqiq etish, ularning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishga diqqat qaratilgan.

Azaldan xalqimiz farzandga mehr berib, uni har tomonlama chiniqtirib, barkamol qilib tarbiyalash borasida asrlar davomida tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanib kelgan. Yoshligidan yetarli mehr ko'rmagan inson kuchli, irodali, chiniqqan, matonatli, sabr-bardoshli bo'la olmaydi degan fikr xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Mehr va mehrlilik hodisasini xalqimiz yaratgan barcha dostonlarida, allomalarimiz yaratgan asarlarda kuzatish mumkin. "Go'r g'o'li", "Alpomish", "Rustamxon", "Kuntug'mush" dostonlarida vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g'oyalari ilgari suriladi[2]. Shiroq, Barchinoy, To'maris, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Manguberdi kabi

qahramonlari siyosida, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ijodkorlarining asarlarida mehr bilan bog'liq qadriyatlarni kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mehr va mehrsizlikning kelib chiqishi sabablari tahlil etishda va uning mohiyatini yoritib berishda analiz, sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mustaqillik, ayniqsa Yangi O'zbekiston sharoitida qadriyatlarimiz asta-sekin uyg'ona boshladi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni o'ttiz yildirki davom etib kelmoqda. Yo'qotishlar qanchalik ko'p bo'lganligini birgina mehr bilan bog'liq qadriyatlarda ham anglash qiyin emas. Achinarli tomoni ularni tiklash jarayoni hali ko'plab vaqt, kuch, g'ayratni talab qiladi. Dunyo hamjamiyati esa ota-bobolarimizning an'analari to'g'ri ekanligini, insonga xos ekanligini ko'rsatib bermoqda. Jumladan, 1997 yil "Butunjahon mehribonlik harakati" tashkilotining tuzganligi, uning doirasida "Xalqaro mehr kuni", "Mehribonlik haftaligi"ning tashkil etilishi, bu harakatga ko'plab mamlakatlar qo'shilishi fikrimizni isbotlaydi. Ammo mustabid tuzum bu borada bizni muammolar girdobiga tashlab qo'ydi.

Insonning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida go'daklik, ilk bolalik, o'smirlik, yoshlik davrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona va yaqinlarning mehri, oiladagi ijtimoiy muhit bu borada o'ziga xos ahamiyatga ega. Yoshlar tarbiyasida maqto'v va muammolardan ko'z yumish yoki ko'proq tanqid qilish ham bolaning to'g'ri yo'lni tanlashida qiyinchilik tug'diradi.

Jamiyatda mehrga bo'lgan e'tiborning susayishi qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, "Ezilgan va yolg'iz insonlar o'z hayotining nafaqat ijtimoiy, balki boshqa jihatlaridan ham ko'ngillari to'lmasligi mumkin", [3] - deb yozadi amerikalik olim Pol Bregg o'z tadqiqotlarida.

Shaxs faoliyati jamiyatda o'zining quyidagi imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi:

- inson taqdirining o'ziga xosligi, takrorlanmasligi va tug'ma "men" ni dolzarblashtirish;
- insonning o'zini mavjud ekanligini aniqlashi va kechinmalarini ifoda etishida foydalaniladigan qadriyat hamda g'oyalardan iborat an'ana va madaniyatlar;
- jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, guruhlariga kirish va rollarni bajarish bilan bog'liq individning ijtimoiy muhiti;
- kishining boshqalar bilan "men-sen" munosabatlarini o'rnatishi. Boshqalarni idrok etish.

Mehr yetishmovchiligi insonda muloqotdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Rang-baranglik, muloqotga kirishuvchanlikning o'zaro ta'sir etish texnikasini yaxshi bilmasligi, ijtimoiy perseptiv funksiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi kabi holatlarni namoyon qiladi.

Bugungi kunda ota-onalarning bolaga yetarli vaqt ajratolmayotganligi, mehr berishga uquvsizligi kabi fikrlar kontent analiz jarayonida kelib chiqmoqda. Jumladan, 2020 yil may - 2021 yil aprel oylari davomida tadqiqotimiz uchun tashkil etilgan ijtimoiy tarmoqlardan biri "Mehr ulashing" telegram kanalida olib borilgan ijtimoiy so'rovda qatnashgan 387 nafar respondentning "Oila a'zolaringizga berayotgan mehringizni yetarli deb o'ylaysizmi (qoniqasizmi)?" deb berilgan savolga 23 foizi "To'liq qoniqaman", 39 foizi "Qisman qoniqaman", 19 foizi "Bilmayman", 12 foizi "Qisman qoniqmayman", 7 foizi "Umuman qoniqmayman" deb

javob berishgan. Ayni paytda atrofdagilaringizdan olayotgan mehrdan qoniqasizmi deb berilgan savolga javob berganlarning 16 foizi umuman qoniqmasligini bildirishgan.

Inson o'zini olomon orasida va hatto sevimli kishisi bilan alohida qolganda ham mehrsiz his qilishi do'stlar soni yoki atrofida qilgan ruhiyatiga emas, balki shaxsning shakllanishi bilan bog'liqdir. Agar inson hayotida o'ziga yetishmayotgan narsalarning o'rnini boshqa narsalar bilan to'ldira olmasa, shubhasiz uning xatti-harakatlari kutilgan natijani bermaydi. Ayni paytda esa mehrsizlik hissi kuchayadi. Mehrsizlik muammosini hal etish uchun eng maqbul yechimlarni topish zarur.

Bugungi kunda jamiyatimizda mehrsizlik hodisasini yaqqol kuzatish mumkin. Bolalar va keksalardagi mehrga muhtojlik, oilaviy ajrimlar sonining oshib borayotganligi, individlikka moyillikning oshib borishi, ayollar va bolalar orasida jinoyatchilikning oshishi, bir-birini qo'llab-quvvatlash muhitining ayrim hollarda susayishida namoyon bo'layotganligini aytish mumkin.

Mehrlilikni anglash borasida shuni aytish mumkinki, agar inson o'zida bezovtalanish, xavotirlik hislarini kuchli ekanligini sezsa, u holda boshqalar va o'zi o'rtasida ishonchli "ko'priq" o'rnatishi lozim.

Zakariyo Ar-Roziy "Ruhiiy tibbiyot" asarida aynan mana shu fikr yoritilgan. "Ar-Roziyning axloqiy qarashlari 'izning mazmun-mohiyatiga ko'ra insonparvarlik xususiyatiga ega, u boshdan oxir inson do'stlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Ar-Roziyning aytishicha inson o'z tabiatiga ko'ra mehribondir. Bu uning o'zidan boshqa kishilarga ham yaxshilik tilay olishida namoyon bo'ladi. Ammo agar kimdir odamlarga yomonlik, baxtsizlik tilasa va ularning ahvolidan xursand bo'lsa, demak u axloqiy kasal bo'lib, ruhiy va axloqiy davolanishga muhtoj. Har bir inson yaxshilik qilishi va odamlarga foyda keltirishi kerak"[4], - deb yozadi.

Bu ko'plab salbiy emotsiyalarni, shuningdek, mehrsizlik hissining ham manbai hisoblanadi. Inson qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, undagi mehr shunchalik yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Mehr hissini o'zida tuygan inson bilan, o'zini undan to'liq bahramand bo'lmagan deb hisoblaydigan kishilar biri introvert, ya'ni o'zining ichki shaxsiyatiga yo'nalgan bo'lsa, ikkinchisi ekstrovert doimo odamlar orasida bo'lishga harakat qiladi. Omma orasida mehrsizlik introvertlar uchun xos bo'lsa, ekstrovert notanish kishilar bilan tez muloqotga kirishadi. Mehrsizlikdan aziyat chekmaydi.

Ota-onalar tomonidan bolaning ichki tabiatiga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni bajarishga majbur qilish (masalan, rassomlik yoki musiqiy qobiliyati bo'lmagani holda o'rganishga da'vat etish) bolada hissiy qo'rquv holatini vujudga keltiradi. Bu bolada ota-onasiga nisbatan xohishlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilgani uchun nafrat hissi paydo qilsa, boshqa tomondan unga barcha sharoitni yaratib berganliklari uchun ularni yaxshi ko'rishga va mehrli muhitning paydo bo'lishiga olib keladi. Biroq u ham ong ostiga siqib chiqariladi. Asta-sekin turli xil ruhiy himoya mexanizmlari shakllana boshlaydi. Ulardan biri ijtimoiy ma'qullangan roldir. Ongda esa yolg'izlik, tashlab qo'yilganlik, uni tushunmaslik hissi qoladi va bu shaxsning butun hayoti davomida tark etmasligi mumkin. Atrofida qarindoshlar, hamkasblar, do'stlar ko'p bo'lsa ham bu his uni tark etmaydi. Odamlar ko'p, ammo gaplashadigan odam yo'q.

Eng to'g'ri tashkil etilgan tarbiya ta'sirida ham insonni mehr ko'rsatish hissi tark etmasligi mumkin. U holda bu his shaxsning o'zgarmas xususiyatiga aylangan bo'ladi. Insonlar

bir-birisiz yashay olishmaydi. Boshqa tomondan esa doimo o'zini yolg'iz his qilaveradi. U har doim muloqotga kirishishga, muloqot muhitidan bahra olishga majbur. Behuda vaqt o'tkazishlar shaxsning rivojlanishi uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Uni haqiqiy muloqot deb ham atab bo'lmaydi. Vaqt kutib turmaydi. Mehribonlik masalasida vaqtni o'tkazib yuborish mehrsizlikni yanada yaqqol ifodalanishiga olib keladi. Inson o'zini tashlab qo'yilgandek his qilishi, ertami, kechmi kasal bo'lib qolishi mumkin. Ko'p hollarda zerikish yoki yolg'izlikdan xalos bo'lish uchun kishilar sayohat qilishni yoqtiradilar. Biroq dunyoning narigi tomoniga borsa ham o'zlaridan qochib qutila olishmaydi.

Jamiyatda shaxs rivojlanishi uchun qulaylik yaratuvchi faoliyatlar juda ko'p. Jumladan, o'qish, izlanish, ijod qilish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni kiritish mumkin. Inson nafaqat boshqalardan nimanidir olish, balki ularga nimanidir berish uchun ham muloqotda bo'ladi. Muvaffaqiyatli tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni boshqalar bilan o'rtoqlashish xohishi paydo bo'ladi. Samarali ijodiy faoliyat munosib baholanadi. Natijada olimlar bir-biri bilan yaqinlashadilar. O'quvchi o'qituvchilardan unga bergan bilimlari uchun minnatdor bo'lsa, o'qituvchi o'quvchining berilgan bilim va g'oyalarni o'zlashtirgani hamda uni rivojlantirgani uchun xursand bo'ladi. Hamkorlikda kashfiyot yaratgan xodimlar bir-biri bilan juda yaqin bo'lib ketadilar. Shaxsning taraqqiyotida uni juda ko'plab yaxshi insonlar bilan uchrashuv kutib turganligini tasavvur qilish mehrsizlik hissining mavjudligi haqida o'ylashga imkon qoldirmaydi. "Har bir ota-ona o'z farzandining sog'lom va barkamol bo'lib, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini o'rganib, jamiyatda munosib o'rin egallashini astoydil istaydi"[5].

Mehrsizlik shunisi bilan xavfliki, uni dastlabki bosqichda sezmaslik mumkin. Inson ish kuni tugagach, hamma uy-uyiga tarqalib ko'chalar bo'm-bo'sh bo'lib qolgach, telefon qo'ng'iroqlari tingach, unga mehr yetishmayotganini seza boshlaydi. Ana shu yolg'izlik tufayli idrok qilinadigan mehr yetishmovchiligini bartaraf etish uchun katta shaharlarda tungi klublar, diskotekalar tashkil etilgan. Ammo bu ko'p hollarda kutilgan ijobiy samara bermaydi. Mehrsizlik o'zini namoyon qiladi va turli kelishmovchiliklar hamda jinoyatlarga olib keladi. Ayni paytda esa tungi qo'ng'iroqlar boshqalar bilan muloqotning vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Depressiya va suisid profilaktikasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mehrni so'ndiruvchi omillar ham borki, xalqimizda bu haqida ko'plab aforizmlar, pand va o'gitlar, rivoyatlar, ilmiy xulosalar mavjud. Jumladan, yuzga tarsaki bilan urish o'zaro mehrni so'ndiradi. Bu borada hatto islom dinida ham bir qancha hadislar mavjud. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. "Agar yuzga tarsaki bilan tushirish nima ekanligini bilganlaringizda bu ishni qilmagan bo'lur edingizlar", - degan ekanlar. Shuningdek, kerakli, eng zarur paytda qo'llab-quvvatlamaslik, betgachoparlik, kinoyali yoki zaharguftorlik, qahri qattqlik kabi jihatlar ham mehrni so'ndirishga olib keladi.

Mehrsizlik hissini chuqurlashtirmaslik, sensor deprivatsiyaga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur. O'z holiga tashlab qo'yilsa har qanday muammoning yechimini topish qiyinlashib boraveradi. Inson asta-sekin xulq-atvorining buzilishi, shaxslararo muloqot o'rnatishning yomonlashuvi kuzatiladi.

Mehrsizlik obyektiv mavjud fenomen bo'lib, u haqida fikr yuritish va o'rganish o'ziga xos qadimiy an'analarga ega. Ayni paytda ham munozarali muammodir. Uning tabiati, rivojlanishi va namoyon bo'lishi haqidagi fikrlarda hozirga qadar ham qarama-qarshiliklar kuzatiladi.

Jamiyatdan ajralib qolishning bir turi bo'lib, subyektda o'zini boshqa kishilar, ijtimoiy guruhlar, turli g'oyalar bilan identifikatsiya qilishi sust kechishi diffuz mehrsizlik bilan

izohlanadi. O'zini boshqalar bilan identifikatsiya qilayotgan kishi o'ziga xos haqiqiy xususiyatlar intilish va qiziqishlarni namoyon etishdan bosh tortadi. U shunchaki talqin qilibgina qolmay, u "o'zida emas", balki o'zini identifikatsiyalaydigan ob'yektga bog'liq holda yashaydi. Bu vaziyatda uning oldida ikki xil yo'l turadi. Birinchidan, o'zini takomillashtirish yo'lini qidirish, ikkinchidan, kim hayotdan mamnun bo'lsa ularning xulq-atvorini ko'chirib olishdan iborat. O'zini takomillashtirish murakkab jarayon bo'lib, kishidan irodaviy va aqliy zo'r berishni hamda hissiy barqarorlikni namoyon etishni taqozo qiladi.

Mehrsizlik tushunchasi subyekt tomonidan vaziyatni ko'ngilsiz idrok qilishi, muloqotning yetishmasligi va ijobiy munosabatlarning kamligi bilan bog'liq. Biroq bu individning har doim ham ijtimoiy jihatdan ajralib qolganligini ifodalamaydi. Ba'zan doimo insonlar orasida bo'la turib, ular bilan munosabat o'rnatib ham inson o'zini ruhiy jihatdan ajralib qolgan, ya'ni yolg'iz his qilishi mumkin.

Haqiqiy subyektiv mehrsizlik holati odatda ruhiy buzilishlarga xos belgilar va affektiv reaksiyalarda namoyon bo'ladi. Ba'zi mehrsizlikni tuyadigan kishilar muntazam ravishda o'zlarida tashvishlanish, ezilganlikdan shikoyat qilsalar, boshqalari esa qo'rquv va xavotirlikni, musibatni his qiladilar. Mehrsizlik holatini his qilishga real munosabatlar qanchalik ta'sir qilsa, ular qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlar ham shunchalik kuchli ta'sir etadi.

Yetarli mehr ko'rmagan kishilar depressiya va tushkunlikka berilgan shaxs bo'lib, ular o'zlarida muloqot ko'nikmasi va malakasi yetishmaydi deb hisoblaydilar. O'zida mehr, e'tibor yetishmayotganini his qilayotgan inson o'zini kam jozibali, hech kim sevmaydigan va hurmat qilmaydigan kishi deb biladi. O'ziga nisbatan bunday munosabat maxsus salbiy affektlar, jumladan, nafrat, g'am-anduh, baxtsizlik kabi hislarni vujudga keltiradi. Bunday inson ijtimoiy aloqalardan o'zini olib qochadi. Atrofidagilardan o'zini izolyasiya qiladi. Unda boshqalarga nisbatan impulsivlik, paranoyalik, ta'sirlanuvchanlik, qo'rquv, xavotirlanish, frustratsiya hislari ustun bo'ladi.

Ota-onalaridan hamda atrofdagilardan yetarli mehr ko'rmagan kishilar boshqalarga nisbatan pessimist bo'ladilar. Ular o'zlariga achinish hissi bilan qaraydilar. Atrofdagilardan yomonlik kutadilar. Kelajakni ijobiy ranglarda tasavvur eta olmaydilar. Boshqalarni va o'z hayotini mazmunsiz deb baholaydilar. Yetarlicha mehr ko'rmagan kishi kam gapiradi, o'zini tinch, boshqalar e'tiborini tortishni yoqtirmaydi, ko'p hollarda g'amgin, horg'in va uyqusiragan holda ko'rinadi.

O'zini mehr, e'tibordan chetda deb his qiladigan odamda xavotirlanish, depressiya holati kuchayadi. Odam mehrsizlik muhitida qanchalik ko'p qolsa, odamlar bilan bo'ladigan muloqotga ehtiyoji shunchalik ortib boradi.

Individning muloqotga kirisha olmasligi ko'pincha ijtimoiy munosabatlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Doimiy ravishda o'zini mehr va e'tibordan chetda deb his qilish insonni turmush tarziga, hayot tarziga, salbiy ta'sir qilib, noxush vaziyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar shaxs jamiyatda o'z o'rnini topolmasa, yaqinlarining hamdardligini his etmasa, bu og'ir ijtimoiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Ko'plab falsafiy maktablar va yo'nalishlar vakillar bo'lgan olimlar o'z ilmiy dunyoqarashlarida mehrsizlik fenomenini yoritishga harakat qilishgan.

Inson mehrsizlik muammosiga duch kelishida bola shaxsini ulg'ayish bosqichlarining ham ma'lum ta'siri bor. Bolalikdan muayyan tartib-qoidalarga amal qilib kelgan bola, endilikda

o'z muammolarini mustaqil yecha olmaydi. O'smir maktabda muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirsa ham maktab hayoti o'smirning xulq-atvori, shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Mehrsizlik muammosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra chuqur ildizga ega. Odam bolasi onasining qornida bo'lganda o'zini himoyalangan his qiladi. Shu holat insonda bir umrga saqlanib qoladi va u shu tuyg'u bilan o'ziga sherik, hamdard qidirishga intiladi. O'smirlar 15-17 yoshlardan mustaqil yashay boshlasalar tezroq ulg'ayadilar. O'zlariga va ota-onalariga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Hayotda shunday hodisalar bo'ladiki, ular kishini bevosita uylashga majbur qiladi. Ayrimlar atrofida doim ularga g'amxo'rlik qilishga tayyor odamlar to'planadilar. Ayrim kishilar o'qimishli, aqlli, go'zal va hokazo ijobiy sifatlarga ega bo'lishiga qaramasdan o'zlarini mehrga tashna his qilib o'tadilar. Bunda muloqotchanlik xususiyatining kimda qanday shakllanganligi uning go'daklik davrida ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ona o'z bolasini qanchalik sevib ardoqlasa, bu kelajakda odamlar orasida muloqotga kirishishiga ijobiy ta'sir etadi. Ko'pchilik odamlar o'zlaridan hayratlanishini, ularga odilona baho berishga qodir emas. O'zini qadrlamaslik natijasida inson o'z atrofida gilar bilan ijobiy energiya almasha olmaydi. Shunday holat yuzaga keladiki, kishi o'z-o'zini yolg'izlikka mahkum qiladi va bu qobiqdan chiqib ketolmaydi.

Mehrsizlikda ham o'ziga xos xususiyatlar uchraydi. Masalan, oilada o'zini yolg'iz sezish. Kishi o'z umr yo'ldoshi bilan birga yashasa-yu, ammo o'zini mehrsiz sezsa bu og'ir ruhiy holatni keltirib chiqaradi. Chunki mazkur juftlik bir-birini sevishga, g'amxo'rlik qilishga bir-birlariga va'da berishgan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, respublikada ajralishlar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-avgust oylarida respublika bo'yicha 25 687 ta ajrim holatlari qayd etilgan. O'zbekistonda yanvar-avgust oylarida eng ko'p ajrim holatlari Davlat statistika qo'mitasi matbuot xizmati Toshkent shahrida deb ma'lumot beradi [6].

Respublika bo'yicha ajrimlar holati

2021 holat

| Bu oylarda hududlar kesimida qayd etilgan ajrimlar soni: | | |
|---|----------------------|-------------|
| T.r | Hudud | soni |
| 1 | Qoraqalpog'iston | 964 ta |
| 2 | Andijon viloyati | 2583 ta |
| 3 | Buxoro viloyati | 1372 ta |
| 4 | Jizzax viloyati | 841 ta |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 1795 ta |
| 6 | Navoiy viloyati | 831 ta |
| 7 | Namangan viloyati | 1997 ta |
| 8 | Samarqand viloyati | 2662 ta |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 1494 ta |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 894 ta |
| 11 | Toshkent viloyati | 2722 ta |
| 12 | Farg'ona viloyati | 2848 ta |
| 13 | Xorazm viloyati | 975 ta |
| 14 | Toshkent shahri | 3709 |

So'nggi yillarda oilada er-xotin o'rtasida bir-birini tushunmaslik, totuvlikning yo'qligi, farzandsizlik, er-xotin shaxsiy hayotiga boshqalarning aralashuvi hamda ular o'rtasidagi o'zaro mojarolar, surunkali ichkilik ajrimlarga asosiy sabab bo'lmoqda.

Xuddi shunday holat 2023 yilning 8 oyi davomidagi O'zbekistonda oilaviy ajralishlar masalasida rekord ko'rsatkich qayd etilgani ijtimoiy tarmoqlarda tarqalganiga guvoh bo'ldik[7]. 2023 yilning 8 oyida qariyb 34 mingta oila ajrashib, bu oilalardagi 25 ming bola endi kundalik hayotini otasi yoki onasisiz davom ettiradi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasiga ko'ra, bu ajrimlarning asosiy qismi er-xotinning oilaga tayyor emasligi, 3-shaxs aralashuvi, uzoq vaqt birga yashamaslik, moliyaviy qiyinchiliklar, xiyonat, spirtli ichimliklar va giyohvandlik, farzandsizlik, mehirsizlik sabab yuz bergan. Qaynonalarning ham oila borasida ilmi, tajribasi yo'qligi, tashqaridan kelgan bir qizga qanday munosabatda bo'lishni bilmasligi ham asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Ikki yoshning orasiga aralashavermaslik, ularni shaxs sifatida qabul qilib, mustahkam munosabat o'rnatishiga qo'yib berish kerakligini ham aholi orasida tushuntirish zarur.

| Nikohdan ajralishlar soni 2023-yil dastlabki sakkiz oyida | |
|--|-------|
| Toshkent sh. _____ | 4 150 |
| Farg'ona _____ | 4 019 |
| Andijon _____ | 3 826 |
| Toshkent _____ | 3 282 |
| Samarqand _____ | 3 144 |
| Namangan _____ | 3 133 |
| Qashqadaryo _____ | 2 378 |
| Surxondaryo _____ | 1 966 |
| Buxoro _____ | 1 694 |
| Xorazm _____ | 1 685 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi _____ | 1 402 |
| Jizzax _____ | 1 172 |
| Sirdaryo _____ | 1 089 |
| Navoiy _____ | 1 013 |
| O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 33 953 | |

Biz kechiradigan hislar mazmuniga ko'ra, noxush yoki xushkayfiyat hosil qiluvchi holatlar bo'lib, biri huzur baxsh etsa, boshqasi behuzur qilib qo'yadi. Chunki kishining biror narsaga munosabati hamisha ijobiy va salbiy kechinmalar orqali bo'ladi. Huzur qilish, suyunish, baxtiyorlik, quvonish, shodlanish va yaxshi ko'rish kabi hislar yaxshi kayfiyat uyg'otuvchi ijobiy munosabat natijasidir. Behuzurlik, qayg'urish, xafalik, g'am-g'ussa, noumidlik, yomon ko'rish, jirkanish, nafrat kabi hislar salbiy tuyg'ulardir.

Shaxs o'smirlik chog'ida ayniqsa mehrga muhtojlikni ko'proq his qiladi. Buning sababi o'smirlik davrida ota-ona mehr me'yorlariga qat'iy rioya qilishi hisoblanadi. Ijtimoiy muhitning,

jamoaning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirganda jamiyatda referent guruh tushunchasiga e'tibor qaratiladi. Hamma odamlar ham, hatto eng yaqin tevarak-atrofdagi odamlar ham o'smir shaxsiga ta'sir qilavermaydi. Har bir shaxs uchun bo'lganidek, har bir o'smir uchun ham ayrim guruhlar mavjud bo'ladi. U shaxs sifatida bu guruhlarining fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan mulohazalari bilan hisoblashadi. Oila, futbol jamoasi, jamoadagi ayrim o'yinchilar, ko'chadagi tanishlar, og'aynilar va hokazo muayyan shaxs uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin.

Mehrsizlik hodisasini keltirib chiqaruvchi omillar sifatida bir qator omillarni keltirish mumkin.

Agar mehrsizlikning shakllanishiga olib keluvchi vaziyatlarni aniqlash oson bo'lsa, uni saqlanib qolishi yoki qanchalik uzoq davom etishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash mushkul. Yangi ijtimoiy guruhga tushib qolgan o'smirlar unga moslashishga, yangi muloqot doirasidagi kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladilar. O'smir uning yolg'izligiga sabab bo'lgan vaziyat oldida o'zini ojiz his qilsa, ruhi tushib ketadi va uni bartaraf etish uchun hech qanday qarorlar qabul qila olmaydi yoki aksincha, yolg'izligiga sabab bo'lgan vaziyatni to'liq anglash uni qat'iyat bilan harakat qilishga undaydi. Mehrsizlikning sababini to'g'ri tushunmaslik uning uzoq vaqt davom etishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar

Mehrsizlikning shaxs bilan bog'liq jihatlarini izohlash o'z ichiga bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarni oladi. Birinchidan, mehrga muhtoj kishilar o'zlarining holatlarini tushuntirishni dastlabki voqealar bilan bog'lab izohlaydilar. Masalan, o'rtadagi akakachilikning buzilishi. Ikkinchidan, mehrsizlik hodisasining uzoq vaqt saqlanib qolishi va barqarorligini, qoniqarli ijtimoiy aloqalar o'rnata olishga uquvsizligining sabablarini turlicha izohlaydi.

Mehrga muhtojlikni tushuntirish shaxsning his-tuyg'u va xulq-atvorining kelajakdagi rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ko'p hollarda u pessimizm, ojizlik, depressiya kabi hislar bilan birgalikda kechadi. Mehrga muhtojlikning sabablari individ javob reaksiyalari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning mehrga muhtojlik hodisasi va uning sabablariga munosabati mazkur holatda depressiya, dushmanlik, unga qarshi faol kurasha olishga o'xshash reaksiyalarning mavjudligi o'zini hech narsaga yaroqsiz, uquvsiz va yaxshi ko'rib bo'lmaydigan inson sifatida his qiladilar.

Mehr ko'rmay ulg'ayganlarda boshqalarga qaraganda ruhiy kasalliklarga chalinish (tushkunlik, ichkilikbozlik va boshqalar) ehtimoli 3 marotaba ko'proq bo'ladi. Ko'proq dorilarga ehtiyoj sezib, shifokorlarga ko'proq murojaat qiladilar.

Mehr - muhabbatga to'la tarbiya ko'rgan farzandning hayotida ushbu holat uning kasbida muvaffaqiyat qozonishi, uzoq va mazmunli umr kechirishida muhim ahamiyatga ega ekan.

Mehr omilining yetishmasligi quyidagi salbiy oqibatlarda namoyon bo'ladi:

- ijtimoiy bog'liqliklardan ozod bo'lishga urinish;
- jamiyatdan begonalashuvga intilish;
- yolg'izlik, yakkalashishiga urinish;
- jamoadan o'zi hoxlamagan holda uzoqlashib borish.

Muloqotdagi uquvsizlikni ham mehrsizlikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qarash mumkin. Muloqotdagi qiyinchiliklar muammosi keng tarqalgan bo'lib, bolalar, o'smirlar,

yoshlar, ayollarda ko'proq kuzatish mumkin. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilarida turli xil holatlar kuzatiladi va har bir shaxsning u yoki bu ruhiy xususiyatida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'z maqsadlariga erishishlarini samarali muloqot sifatida ko'rish mumkin. Ular o'zlari uchun yoqimli bo'lgan subyektiv masofani saqlashga muvaffaq bo'lishadi. Muloqot kamida ikki kishi o'rtasidagi o'zaro ta'sir ekan, undagi qiyinchiliklar ham ishtirokchilardan biri yoki har ikkalasi tomonidan vujudga keltirilishi tabiiy holdir. Natijada u yoki bu darajada maqsadlarning amalga oshmasligi, motivlarning qondirilmasligi, kutilgan natijaga erishmaslik kuzatiladi.

Mehrsizlik jamiyatda turli ijtimoiy xavfli illatlarni keltirib chiqarar ekan uning asl sabablarini aniqlash, ularning oldini olish, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston sharoitida mehr omiliga bo'lgan e'tibor tobora oshib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq bilan muloqot chog'ida, o'zlarining ma'ruza va chiqishlarida bu borada doimo to'xtalib o'tadilar. Jumladan, 2021 yil may oyida Surxondaryoda aholi xonadonlarida bo'lganlarida "Bir-birimizga bo'lgan mehrimizni oshirishimiz kerak", - deb ta'kidladilar.

Adabiyotlar/Literatypa/ References:

1. Mirziyoyev Sh.M., Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - B. 146.
2. Xalq dostonlari. //http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/uzbek_national_heroic_epic_tale_yooip
3. Labirinti odinochestva. Sbornik. Pod red. Parovskogo N.Ye. – Moskva: EKSMO – Press, 1989. – S. 549.
4. Abu Bakr Ar-Razi. Duxovnaya medisina. – Dushanbe: Irfon, 1990. – S.19.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. 4-жилд - Тошкент: "Ўзбекистон", 2020. –Б. 412.
6. O'zbekistonda so'nggi 8 oyda eng ko'p ajrim qaysi hududda qayd etilgani aytili. //bugun.uz// 15-09-2021.
7. [Oilaga tayyormaslik, qizg'anchiq qaynonalar va 3-shaxslar aralashuvi - ajrimlar haqida boricha \(kun.uz\)](#) 21.10.2023.
8. Bozorova, R. Z., & Avezov, O. (2023). DINIY MASALALARDA TA'LIM-TARBIYANING AKS ETISHI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(11), 153-156.
9. SHarofovna, B. R. Z. (2023). ILM NARSALARNING ENG FOYDALISIDIR. Научный Фокус, 1(6), 372-375.
10. Ro'zigul, B. (2023). TA 'LIM TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL MEDOTLARDAN FOYDALANISH. ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES"., 14(1).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).